


# Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:  
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



### TILSHUNOSLIKDA “KONSEPT” BIRLIGI VA UNING O’RGANILISHI

**Baro Hakimova**

*O’qituvchi*

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti,  
 Toshkent, O’zbekiston*

#### MA QOLA HA QIDA

**Kalit so‘zlar:** Konsept, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, til, qatlam, millat, ma’no, lingvistika.

**Annotatsiya:** Tilshunoslikda konsept masalasi va uning fanga kirib kelishi kognitiv lingvistikani rivojlanishining o‘ziga xos tomoni xisoblanadi. Shunga ko‘ra, maqolada konseptning fanga kirib kelguncha rivojlanish bosqichi, fanga kirib kelishi va fanga kirib kelgandan so‘ng turli xil olimlarning fikrlari va tadqiqotlari haqida so‘z boradi. Yaqin o’n yil mobaynida tilshunoslikda konsept haqidagi fikr va mulohazalar hamda undan chiqarilgan xulosalarga asoslanib “konsept” tushunchasiga asosiy ta’riflar beriladi.

Konsept haqidagi tadqiqotlardan kelib chiqib shuni ytish mumkinki, turli madaniyatlarda konseptlar olami turlicha aks etadi. Konsept xalq madaniyati ta’sirida vujudga kelgan birlik bo‘lib, leksik, frazeologik vositalar orqali millat lingvomadaniyatini ochib berishga xizmat qiladi. Konseptni har bir millat o‘z dunyoqarashi va mentaliteti orqali tasavvur qiladi. Bu voqelik kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik jihatidan olamning lisoniy tasviri sifatida qaraladi.

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, konsept ko‘rinmas tafakkur kategoriyasi va bu uning izohlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Konsept bir-biriga bog‘liq, bir butun qoidaga ega g‘oyalar yig‘indisi. Konsept tushunchaning obrazda, mazmun va belgida aks etuvchi tarkibiy shakllarida mujassamlashgan mohiyatidir. Konsept matnda bir butun ko‘rinishda namoyon bo‘lib, matnda aks

etgan mazmunni ochib berishga xizmat qiladi.

## “THE CONSEPT” UNITY AND ITS STUDY IN LINGUISTICS

**Barno Khakimova**

*Lecturer*

*Tashkent Institute of Economics and Pedagogy,  
Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Concept, cognitive linguistics, linguoculturology, language, layer, nation, meaning, linguistics.

**Abstract:** In linguistics, the question of the concept and its entry into science is considered a unique aspect of the development of cognitive linguistics. Accordingly, the article talks about the development stage of the concept before its entry into science, its entry into science, and the opinions and studies of various scientists after its entry into science. Over the past ten years, basic definitions of the concept “concept” have been given, based on opinions and considerations about the concept itself and the conclusions drawn on its basis.

Based on the study of the concept, we can say that the world of concepts is reflected differently in different cultures. The concept represents a unity created under the influence of national culture and serves to reveal the linguistic culture of the nation through lexical and phraseological means. Each nation represents this concept through its worldview and mentality. This reality is considered as a linguistic representation of the world from the point of view of cognitive linguistics and linguistics.

So, in conclusion, we can say that the concept is an invisible category of thinking, and this creates great opportunities for its interpretation. A concept is a set of ideas that are related to each other and obey a single rule. A concept is the essence of a concept, embodied in structural forms reflected in the image, content and sign. The concept appears in the text as a whole and serves to reveal the content reflected in the text.

## ЕДИНИЦА «КОНЦЕПТА» В ЯЗЫКОВЕДЕНИИ И ЕЁ ИЗУЧЕНИЕ

**Барно Хакимову**

*Учитель*

*Ташкентский институт экономики и педагогики,  
Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:**  
Концепт, когнитивная  
лингвистика,  
лингвокультурология, язык,  
пласт, нация, смысл,

**Аннотация:** В лингвистике вопрос о понятии и его вхождении в науку считается уникальным аспектом развития когнитивной лингвистики. Соответственно, в статье говорится об этапе развития концепции до ее входа в науку, ее вхождении в науку, а также мнениях и

лингвистика.

исследованиях различных ученых после ее входа в науку. За последние десять лет даны основные определения понятия «концепт», основанные на мнениях и соображениях о самом понятии и сделанных на его основе выводах.

На основании исследования концепта можно сказать, что мир концептов по-разному отражается в разных культурах. Концепт представляет собой единство, созданное под влиянием национальной культуры и служит раскрытию языковой культуры нации посредством лексических и фразеологических средств. Каждая нация представляет это понятие через свое мировоззрение и менталитет. Эта реальность рассматривается как языковая презентация мира с точки зрения когнитивной лингвистики и языкоznания.

Итак, в заключение можно сказать, что концепт является невидимой категорией мышления, и это создает большие возможности для его интерпретации. Концепция – это совокупность идей, которые связаны друг с другом и подчиняются единому правилу. Концепт – это сущность понятия, воплощенная в структурных формах, отраженных в образе, содержании и знаке. Понятие выступает в тексте в целом и служит для раскрытия отраженного в тексте содержания.

## KIRISH

Konsept tushunchasini turli xil soha va yo'nalishlarda uchratishimiz va har bir sohada konseptning o'z ma'no va vazifasi borligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, psixolingvistika, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik<sup>1</sup> sohalari nuqtai nazaridan konsept talqinlari ko'rib chiqilgan.

Psixolingvistika nuqtai nazaridan konsept insonning psixik hayot qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega.

Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik fanlarining asosiy mavzusi konsept bo'lib, u tafakkur birligi sifatida millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi.

Tilshunoslik zamonaviy yo'nalishlarining deyarli barchasida konsept asosiy aspektlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoshlik bilimlari tadqiqoti bilan shug'ullangan tadqiqotchilar mazkur birlikka nisbatan o'zlarining qarash va ta'riflarini bergenlar. Konsept madaniyat nuqtayi nazaridan qaralar ekan, uni inson ruhiy-idrokiy olamidagi madaniyatning asosi uzviy sifatida tushunish lozim.

Ilmiy muomalaga “konsept” atamasini sxolastik yo'nalish faylasufi Petr Abelyar kiritgan. U kontseptni til strukturalari bilan emas, balki nutq bilan bog'lagan, zero til strukturasi mavhumlashtirish mantiqiy amallari bilan bir qatorda, hissiyot va tasavvur tajribasi asosida ham shakllanadi.

<sup>1</sup> Никишина И.Ю. Язык сознание коммуникация. // “Понятие концепт в когнитивной лингвистике”. – М., 2002. – № 21. – С.5-7.

Konsept turli tuzilmalar va elementlarni o‘z ichiga olgan konstrukt hisoblanadi. U mental akt mahsulidir. Shu sababli kontsept atamasini hozirgi vaqtida matematika, mantiq, falsafa, kulturologiya, sotsiologiya, lingvistika singari sohalarning vakillari ishlatalardilar.

Tillarning grammatik tarkibi, uning tizimi kognitiv tilshunoslik nazaridan chetda qolmaydi. Voqelik va uni idrok etish makon va zamon tushunchalari bilan uzviy bog‘liqligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Shunday ekan, muloqotga kirishayotgan shaxs tinglovchini qiziqtirayotgan mavzuni (konseptni) unga yetkazishda gapirilayotgan tildan leksik birliklarni tanlaydi so‘ngra mavjud grammatik kategoriyalar asosida ularni modellashtiradi va shu tariqa uni tinglovchi e’tiboriga havola etadi. Voqelik (mavzu) - uni tegishli tartibda grammatik jihatdan modellashtirish – tinglovchi tomonidan bu axborotni qabul qilinib, idrok etilish jarayoni ijtimoiy tilshunoslik, psixolingvistika va kognitiv tilshunoslikning o‘rganish obektlaridan biridir.

Aytilganlardan ma’lum bo‘lishicha, dunyoni, bizni o‘rab turgan muhitni, sodir bo‘lgan, bo‘layotgan voqeja va hodisalarni bilish, idrok etish til faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. «Kognitiv tilshunoslik inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o‘zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo‘sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug‘ullanadi. Kognitiv – tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o‘rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. U (kognitivist) lisoniy va tafakkur faoliyatları munosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo‘lgan muloqat matnlari – lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi».

Konsept ongimizda zehniy yoki ruhiy zaxiralarni sharhlashga xizmat qiladigan va insonning bilim va tajribasini aks ettiradigan informatsion strukturadir. U xotiraning operativ mazmuniy birligi, ong (mental) leksikani, konseptual tizim va aqliy til va inson ruhiyatida aks etgan olam manzarasidir. Bu yakka shaxs dunyo obyektlari haqida biladigan, guman qiladigan, o‘ylaydigan, tasavvur qiladigan ma’lumot.

Konseptlar – so‘z bilan ekstralolingvistik voqelik o‘rtasidagi vositadir. Belgi o‘z ichiga olgan kosept so‘zning ma’nosini tashkil qiladi. Barcha insonlar haroratga ega bo‘lgan obyekta qanday aksulamal ko‘rsatishni biladi, lekin tilda o‘z aksini topgan ma’nolarni *kuyib qolish, yonib ketish, issiq, qaynoq va b.* Bu konseptning faqat bir qismini ifodalaydi.

Konsept insonning mental (ong) olamida madaniyatning asosiy yacheyka (bo‘linma)si. Konsept strukturasi murakkab. Bir tomondan tushunchaning tuzilishiga bog‘liq bo‘lgan barcha narsalar unga ham tegishli. Undan tashqari, konsept strukturasiga so‘zning etimologiyasi, tarixning qisqacha mazmuni, belgilari, hozirgi zamon assotsiatsiyalari, baholar va boshqalar kiradi.

Ma’lumki, Gumboldt tilmi “tashqi olam hodisalari va insonning ichki olami o‘rtasida joylashgan olam” deb tushunardi. Shunday ekan, mazmunni uning egasi bo‘lgan insonning ichki olamisiz o‘rganib bo‘lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, mazmunlarni psixik subyektlarning o‘zaro munosabatini belgilovchi so‘zlashuv va anglash kabi jarayonlardan ayri holda o‘rganish mumkin emas.

Hozirgi kunda kognitiv lingvistikaning quyidagi yo‘nalishlari mavjud:

- a) Madaniyatshunoslik yo‘nalishi – konseptlarni turli ilmlarning ma’lumotlariga tayangan holda madaniyatning bir unsuri deb o‘rganish.
- b) Lingvokulturologik yo‘nalish – konseptlarni milliy lingvomadaniyat va bu madaniyatning milliy qadriyatlar va milliy o‘ziga xosliklar bilan bog‘liq ravishda o‘rganish.
- c) Mantiqiy – konseptlarni mantiqiy metodlar vositasida o‘rganish.

d) Semantik-kognitiv – tilning lug‘aviy va grammatic semantikasini konseptlarning mazmunini ochish vositasi, tilning semantikasidan konseptosferasiga modellashtirish vositasi sifatida o‘rganish.

e) Falsafiy-semiotik – belgilar tizimini kognitiv asoslari sifatida tadqiq qilish.

Har qanday milliy g‘oya xalqning turmush tarziga, uning mentaliteti, madaniyatiga, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy uyushish shakliga, falsafasi, dini, tilda aks etadigan tafakkuriga bog‘liq bo‘ladi. Bir sotsiumda yashaydigan odamlar muayyan madaniy makonni yaratadilar va bu yerda qadriyatlar, me’yorlar, mo‘ljallar kompleksining shakllanishi yuz beradi. Asosiy maqsadi boshqa xalqlar qatorida milliy o‘ziga xoslikka erishishdan iborat bo‘lgan milliy g‘oya aynan shu paradigma asosida yaratiladi.

Ayrim xalq madaniyatini faqat o‘zlikni anglash deb ataladigan hodisa doirasida tadqiq etish mumkin. Til dunyoni anglash jarayoniga ta’sir ko‘rsatishga qodir, zero til amaliyotlari turli xayoliy obrazlarni yaratishga ko‘maklashadi. Madaniy xususiyatlarning mavjudligi fikrlash jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi va tilda aks etadigan tafakkurda mental obrazni yaratadi.

Tilshunoslik zamonaviy yo‘nalishlarining deyarli barchasida konsept asosiy aspektlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoshlik bilimlari tadqiqoti bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar mazkur birlikka nisbatan o‘zlarining qarash va ta’riflarini bergenlar. Konsept madaniyat nuqtayi nazaridan qaralar ekan, uni inson ruhiy-idrokiy olamidagi madaniyatning asosiy uzvi sifatida tushunish lozim.

Lingvomadaniyatda ham tilshunoslikning boshqa zamonaviy yo‘nalishlari singari, konsept asosiy termin sifatida qo‘llanadi. XX asrning 90-yillariga kelib keng qo‘llanishga kirgan **konsept** atamasi lotincha **conceptus** bo‘lib, umumiyligilib aytganda, “tushuncha” ma’nosini ifodalaydi. Hozir ham ko‘pincha “konsept” atamasidan “tushuncha” so‘zining sinonimi sifatida foydalanimoqda. Shuningdek, “konsept” atamasi matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo‘llanilmoqda. “Konsept” tushunchasini turli xil soha va yo‘nalishlarda uchratish va har bir sohada uning o‘z ma’no va vazifasi borligini kuzatish mumkin. Jumladan, “konsept” atamasining talqinlari tilshunoslik, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik sohalari nuqtai nazaridan batatsil ko‘rib chiqilgan<sup>2</sup>.

Birinchi bor bu atamani rus fanida 1928-yilda S.A. Askoldov qo‘llagan. Olim konseptni ko‘pgina noaniq predmetlar, harakatlar, voqeliklar (rivojlanish konsepti, haqiqatgo‘ylik, matemetik konseptlar)ni fikrlash jarayonida o‘rnini to‘ldiruvchi tafakkur shakli deb izohlaydi<sup>3</sup>.

Rus tilshunosi Demyanok V.Z. “Понятие и концепт в художественной литературе и научном языке” ilmiy ishida “konsept” terminining lotin, fransuz, italyan, ispan, nemis, ingliz va rus tillarida qo‘llanishini o‘rganib chiqib quyidagi xulosalarga kelgan: a) dastlab “konsept” termini lotin tilida **conceptus** “ibridoiy, boshlang‘ich holat” ma’nolarida qo‘llangan. Italian va ispan tillarida konsept (**conetto**, **concepto**) badiiy adabiyot tekstlarida azaldan uchrab kelgan va ko‘pgina ideomalarda uchraydi; b) nemis tilida esa konsept (**Konzept**, **Koncept**) termini “xomqolip”, ya’ni rus tilidagi “konspekt” ma’nosida qo‘llangan. Ingliz tilida esa konsept

<sup>2</sup> И.Ю. Никишина Язык сознание коммуникация. // “Понятие концепт в когнитивной лингвистике”. – М., 2002. – № 21. – С.5-7.

<sup>3</sup> С.А. Аскольдов Концепт и слово. // Русская словесность. Антология. Москва: Academia, 1997.–С.45

(*concept*) falsafiy termin sifatida ishlataladi. Rus tilida konsept 1920-yillardan boshlab 1970-yillargacha “tushuncha” terminining sinonimi sifatida qo‘llangan<sup>4</sup>.

Konsept atamasi “tushuncha” ma’nosini ifodalayotgan va undan “tushuncha” so‘zining sinonimi sifatida foydalani kelinayotgan bo‘lsa-da, oddiy tushuncha va konsept orasida farqli hamda o‘xhash tom'onlari bor. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, konsept ularning yuzaki (o‘ta muhim bo‘lmagan) tom'onlarini ham qamrab oladi. Tushuncha so‘z orqali ifodalananadi. Lekin tushuncha va so‘z aynan bir narsa emas. Tushuncha biror bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va bu predmetning umumiyligi va farqlovchi belgilari majmui asosida shakllanadi.

Konsept xalq madaniyati ta’sirida vujudga kelgan birlik bo‘lib, leksik, frazeologik vositalar orqali millat lingvomadaniyatini ochib berishga xizmat qiladi. Konseptni har bir millat o‘z dunyoqarashi va mentaliteti orqali tasavvur qiladi. Bu voqelik kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik jihatidan olamning lisoniy tasviri sifatida qaraladi. Biror konseptni mukammalroq o‘rganish uchun shu konseptni turli tillarda solishtirib, uning turli millatlar madaniyati, kundalik hayoti va mentalitetida tutgan o‘rnini aniqlash zarur.

Konsept – bir millatga tegishli bo‘lgan hayotiy tajriba natijalarini o‘zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig‘indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo‘lgan munosabat, bir millatning nimadir haqidagi o‘y-fikrlari, qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan termindir. Shu bilan bir qatorda konsept xotiraning operativ birligi bo‘lib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarini o‘z ichiga oladi<sup>5</sup>.

Oxirgi o‘n yillikdagi amalga oshirilayotgan lingvistik tadqiqotlarda til va tafakkurni yaxlit konsepsiyasini tuzish, tilda tildan tashqari bo‘lgan voqelikni ifodalash usullari, dunyo haqidagi bilimlar, “dunyoning til tasviri”ni shakllantirish qonunlari masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Nazariy adabiyotlarning tahliliga binoan zamonaviy ilm-fanning terminologik sistemasiga “konsept” tushunchasi aktiv kirib kelmoqda.

Yuqorida zamonaviy gumanitar bilim sohasiga “konsept” so‘zini rus mutafakkiri S.A.Askoldov kiritilgan ta’kidlandi. Aniqroq to‘htaladigan bo‘lsak, konseptni individual tushuncha emas, balki unda “umumiylilik”ni nazarda tutilishini tushunish mumkin.. S.A.Askoldov konseptning 2ta asosiy turini ajratadi:

- Bilimga oid;
- Badiiy (san’atga oid)

Ammo bunday turlarga bo‘linishni mutlaq to‘g‘ri deb bo‘lmaydi.

Konseptning asosiy belgisi sifatida S.A.Askoldov “o‘rin oluvchi (bosuvchi)” vazifasini hisoblaydi. Konsept - ongda tashkil bo‘lgan shakl, va u fikrash jarayonida bizga bitta turga tegishli bo‘lgan predmetlarning noaniq ko‘pligini o‘rnini bosadi.

Shunday qilib, konsept - o‘rnini bosuvchi ko‘plikning aksi emas, balki “uni ifodalovchi va u yoki bu (ish)ni amalga oshirish imkoniyatining belgisidir. Natijada konsept “o‘rin bosadigan sferaga potensial va dinamik ravishda yo‘naltirilgan belgilangan imkoniyat, dastlabki simvolik (ishoraviy) proeksiya, belgi, ishora” bo‘lib chiqadi.

S.A.Askoldovning maqolasida turli darajada bir xil g‘oya ko‘rilgan: konsept simvolik, dinamik va potensialdir. Yaratuvchining ishi samarasida paydo bo‘lgan konseptlar inson idrokida

<sup>4</sup> D. B. Agzamova “Xotira” konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi umumiyligi va o‘ziga xos xususiyatlari, dis., T., 2012, 21-b.

<sup>5</sup> Е.С. Кубрякова Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Московский гос. ун-т, 1996.– С.31.

o'sadi, rivojlanadi, ajratib chiqiladi, o'zgartiriladi. Konseptning tabiatи simvolik, chunki belgi (simvol) ham konsept kabi hech qachon madaniyatning bitta sinxron kesishishiga tegishli emas.

Lingvistikada "konsept" termini Patnem, Rassel, Cheyf, Shenkaning ishlarida (asarlarida) terminning adekvat tarjimasi masalasini hal qilish uchun ingliz adabiyotidan o'zlashtirilgan (70-yillar o'rtasi). G.A.Shurov tomonidan tarjima qilingan Cheyfning asarida concept so'zi "tushuncha" deb tarjima qilingan, "konseptual" so'ziga inglizcha "ideational" so'zi to'g'ri kelishi aytib o'tiladi. Shu bilan birga yana shuni nazarda tutish kerakki, lingvistik asarlarning (uzusini) aks etadigan terminologik tezaurusda konsept terminating kelib chiqishi berilmagan, buning o'mida "tushuncha" so'ziga havola berilgan.

«Konsept» terminini kiritish zaruriyati A.A.Grigorevning fikricha formal mantiq tomonidan ishlab chiqilgan tafakkur shakllarining sezilarli ravishda yetishmasligini anglash bilan yuzaga kelgan. Zamonaviy simvolik mantiqning asoschilaridan biri A.Cherch tushuncha ichida intensional kontekstdan tashqari yana ma'nolar bilan bog'liq problematikaning mavjudligini ko'rsatish uchun inglizcha notion va concept so'zlarini ajratadi.

Leksik birliklarning konseptual tabiatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar uchun asosiy sabab 1989-yilda (N.D.Aryutyunova boshchiligidagi) "Tilning mantiqiy tahlili" nomli problem guruhi tashkil topishi bo'ldi. Bu guruh doirasida tilda uchraydigan "semantik ahamiyatini mazkur til kollektivining dunyoqarashi aks etadigan" so'zlarning (konseptlarning) tahlilini amalga oshirish ishlari boshlandi". Bu termindan foydalanish boshida falsafa bilan o'zaro munosabatda bo'lganligi tufayli lingvistikating predmet maydonining kengayishiga sabab bo'ldi.

Keyinchalik terminning mazmuni ma'naviy orientatsiyalarining ko'chishi bilan aniqlandi. Terminning interpretatsiyasi insonda mavjud bo'lgan va inson ongi uchun xizmat qiladigan ma'noga, ma'no anglatishga va kommunikatsiyaga yo'naltirildi.

"Konsept" so'zi proterminologik vazifasida rus lingvistikasida 90 yillarning boshidan aktiv ravishda ishlatila boshlandi. Masalan, D.S.Lixachev "Rus tilining konseptosferasi" maqolasida shunday deydi: "Konsept so'zning lug'aviy ma'nosi insonning shaxsiy va milliy tajribasi to'qnashuvining natijasi." Tajriba qanchalar keng va boy bo'lsa, konsept ham shunchalar boy bo'ladi.

Konseptga ta'rif bergen paytda muallif konseptning shakllanishida shaxsga oid bo'lgan komponentga katta ahamiyat beradi. "Har bir insonda o'zining individual madaniy tajribasi, bilim va ko'nikmalarining zahirasi bor va bular bilan so'zlarning ma'nolari boyligi hamda bu ma'nolarning konseptlarining boyligi aniqlanadi, shu bilan birga ularning kambag'alligi, bir ma'noliligi haqida ham tasavvur hosil qilishga ko'mak beradi."

Konsept ta'rifi tagida turgan hodisa yangi emasdir. Konseptual fazoning zamonaviy tadqiqotlarida V. fon Gumbolt, L.Yavaysber, E.Sepir, B.Uorf, E.Benvenist kabi tilshunos olimlarning dunyoning ma'naviy tasavvurini so'z orqali shakllantirish va tilni dunyoqarashning sistemasi sifatida ko'rilgan jarayonlarni o'rganish an'anasi davom etmoqda.

"Konsept" terminini o'zlashtirish jarayoni zamonaviy lingvistikada ikkita yo'nalishda amalga oshiriladi:

Birinchisi - o'z derivativlarining, "konseptosfera", "konseptlashtirilgan predmet soha", "konseptlashtirilgan fon" kabi so'z va so'z birikmalarining paydo bo'lishi bilan bog'liq;

Ikkinchisi - konsept fazosining "yangilanish"ini nazarda tutadi, va bu konsept tabiatini tushunish, unga aniq definitsiya berish va konseptlar tipologiyasini tuzishga yordam beradi.

Definitsiyaning asosi bo'lgan bunday relevant tamoyilden kelib chiqqan holda, "konsept" termini lingvistik adabiyotda turlicha talqin qilinadi. V.A.Tonkov lingvistikada ikkita yo'nalishni

ajratish imkoniyati haqida gapiradi, ular doirasida konsept tushunchasining anglash mumkin. Bunday yo'naliш sifatida kognitiv va konseptual madaniy (E.A.Kruglova bo'yicha tarixiy-madaniy) yo'naliшlar hisoblanadi.

Bu yondashuvlarga binoan konseptning ikkita ta'rifi ajratiladi:

- 1.Konsept - bizning psixikamizda mavjud bo'lgan mental hodisa, ideal obyekt, ongimizning voqeylekning u yo bu hodisasi haqida ma'lumotni saqlaydigan kategoriya.
- 2.Konsept - ma'naviy madaniyatning kalit so'zi. (V.V.Kolesovga binoan "mentalitetning asosiy nuqtalari")

Konseptning lingvomadaniyatshunoslikda interpretatsiyasini (talqinini) ko'rib chiqamiz. Konseptual madaniy yondashuv doirasida konsept o'zida biron bir madaniyatga tegishli insonning ma'naviy qiyofasini aks etadigan mental hodisa hisoblanadi. Konsept madaniy "fokus" deb ham hisoblanadi.

Masalan, S.G.Vorkachev konseptni til va madaniyat o'zaro bog'liqligida anglash uchun asosiy 3ta yondashuv haqida so'z yuritadi.

1.Eng keng ma'noda konseptlar qatoriga milliy til ongini o'z ichiga olgan va til egalarining "sodda dunyo tasviri"ni ta'riflaydigan leksemalar kiradi. Bunday konseptlarning yig'indisi tilning konseptosferasini tashkil etadi, va unda millatnining madaniyati talqin qilinadi.

2.Torroq tushunchada konseptlar qatoriga lingvomadaniy spetsifikasi (o'ziga xoslik) tomonidan belgilangan semantik shakllar kiradi, ular aniq bir etnomadaniyat egalarini ta'riflaydi. Bunday konseptlar yig'indisi butun va strukturlashtirilgan biron bir semantik konseptosferani tashkil etmaydi, ammo unda aniq bir qism - konseptual sohani egallab turadi.

3.Uchinchi yondashuvda konseptlarning ro'yxati chegaralagan va ular milliy mentalitetni uning egalarini dunyoga nisbatan bo'lgan spetsifik (o'ziga xos) munosabatini anglashda asosiy hisoblanadi.

Birinchi nuqtai nazar A.P.Babushkinning ishida aks etgan, unda konsept "kollektiv ongning har xil diskret birligi", u real va ideal dunyoning predmetini ifodalaydigan va til egalarining milliy xotirasida verbal ko'rsatilgan shaklda saqlanadi. Konseptlarning yig'indisi milliy-madaniy spetsifikasi (o'ziga xoslikga) ega "konseptosferani", tilning "aurasini" tashkil etadi, deb hisoblanishi qayd etilgan.

Tilning har bir egasi, ongida u yo bu konseptni amalga oshirgan paytda uning obyektiv ma'nosiga subyektiv tajribaning elementlarini kiritadi. D.S.Lixachyovdan so'ng, A.P.Babushkin alohida tilga ega shaxsda mavjud kognitiv strukturalar va umummilliy tilning "konseptosfera"ning avloddan avlodga o'tadigan konseptual modellar haqida o'z qarashlarini yoritishga harakat qildi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, konsept insonning ma'naviy dunyosini aks ettiradigan, moddiy dunyonni ifodalashga xizmat qiladigan tajriba, bilim va ko'nikmalar yig'indisi sanaladi.

Konseptning ma'nosi murakkab, shuning uchun olimlar konseptga tizimli hodisa sifatida qaraydi. Bu tizim *qatlam* so'zi bilan talqin qilinadi. Qatlam nuqtai nazaridan konsept turlarga ajratiladi. Bu turlar ikkita asosga qaratilgan. Birinchi asos – diaxronik, ikkinchisi – sinxronik. Diaxronik nuqtai nazariga ko'ra konseptlar zamonaviy va tarixiy qatlamga ajratiladi. Sinxronik nuqtai nazarida konseptlar ostida yotgan obraz asosiga qaraladi<sup>6</sup>.

<sup>6</sup> Е.С. Рябкова Альманах современной науки и образования // "Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры". – М., 2012. – №4 (59). – С.187.

Mana shu murakkabliklar V.A. Maslovaning ishlarida ham o'rganilib chiqilgan. U konsept ma'nosiga ko'p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o'ylanadigan, balki ular o'zлari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnotatsiyani o'z ichiga olishini ko'rsatadi<sup>7</sup> va konsept tuzilishida o'zgacha nuqtai nazar borligini ta'kidlaydi. Konsept markazida qadr-qimmat turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotadi. Har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'noviy tuzilishdan tashqari, insonning ifodalanayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy-individual komponentlarni o'z ichiga oladi, deb ta'kidlaydi<sup>8</sup>.

Konsept tuzilishini o'rganishda boshqacha qarashlarni Y.S.Stepanovning ishlarida ham kuzatamiz. U bir tomonidan, konsept tuzilishida hamma turg'un tushunchalarni ajratadi, ikkinchi tomonidan konseptni madaniyatga asoslangan ichki tuzilish-etimologiyasini ko'rsatadi<sup>9</sup>.

Lingvomadaniy jihatdan konsept madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, uning tarkibiga belgilar etimologiyasi, konsept tarixi, zamонавиу assotsiatsiyalari, unga munosabat yoki uni baholash kiradi. Kognitiv va til strukturasini bog'lab turuvchi birlikka konsept deyiladi. Lingvomadaniyatshunoslikda konsept quyidagi til birliklarida ifoda etiladi: leksik va frazeologik birliklarda; nutq birliklarida (so'z birikmasi, gap), grammatik tuzilishda. Keltirilgan til birliklarida konsept o'z mazmunining ma'lum qismini bera oladi. Konseptda lingvistik ifoda vositalari yotadi. Lingvistik vositalar konseptni so'z munosabatida lingvomadaniyatni namoyon qilishi uchun muhimdir. Leksik va frazeologik birlik til sistemasiga kiruvchi kommunikativ jarayonni talab etuvchi konseptlarda yashaydi. Konseptni to'liq anglash uchun bir-biriga o'xshash kategoriyalarni tushunish darkor. Bular qatoriga birinchi navbatda mantiqiy tushuncha va til ma'nolari kiradi<sup>10</sup>.

Lingvomadaniy konsept talqinlarining xilma-xilligiga qaramasdan quyidagi qoidalarni sanab o'tish mumkin:

- 1)Lingvomadaniy konsept ko'pqirrali ma'noga ega;
  - 2)Konsept madaniyat, til va tafakkurda mavjuddir;
  - 3)U predmetlashgan yoki "verbal aks etgan" bo'lishi kerak, ya'ni rivojlanishi davrida lisoniy aks etgan bo'lishi zarur;
  - 4)Tilda bilimlar yig'indisi sifatida, ya'ni leksik, frazeologik, paremiologik birliklarda aks etgan bo'lishi zarur;
  - 5)Konseptlar mutanosibligi biror bir xalq va uning tili konseptosferasini tashkil qiladi;
- Lingvomadaniy konseptlar mazmuniga ko'ra emotsiunal konsept (qo'rquv, xursandchilik, sevgi, ezgulik), intellektual (aql-idrok, tushunish) kabi konseptlarga bo'linadi.<sup>11</sup>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, konsept ko'rinishas tafakkur kategoriyasi va bu uning izohlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Konsept bir-biriga bog'liq, bir butun qoidaga ega g'oyalar yig'indisi. Konsept tushunchaning obrazda, mazmun va belgida aks etuvchi tarkibiy shakllarida mujassamlashgan mohiyatidir. Konsept matnda bir butun ko'rinishda namoyon bo'lib, matnda aks etgan mazmunni ochib berishga xizmat qiladi. Konseptning asosini tashkil

<sup>7</sup> B.A. Маслова Когнитивная лингвистика. – М.: Тетра Системс, 2004 – С.36.

<sup>8</sup>O'sha asar.–B.45.

<sup>9</sup> Ю.С.Степанов Константы: Словарь русской культуры: Изд. 2-е. – М.: Академический проект, 2001.– С.43.

<sup>10</sup> Е.С. Рябкова Альманах современной науки и образования // "Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры". – М., 2012.– №4 (59). – С.187.

qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiyl xarakterga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimiyl xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi.

Konsept ko'rinas tafakkur kategoriyasi va bu uning izohlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Konsept atamasi "tushuncha" ma'nosini ifodalayotgan va undan "tushuncha" so'zining sinonimi sifatida foydalani kelinayotgan bo'lsa-da, oddiy tushuncha va konsept orasida farqli hamda o'xshash tomonlari bor. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, konsept ularning yuzaki (o'ta muhim bo'lмаган) tomonlarini ham qamrab oladi. Tushuncha so'z orqali ifodalanadi. Lekin tushuncha va so'z aynan bir narsa emas. Tushuncha biror bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va bu predmetning umumiyl va farqlovchi belgilari majmui asosida shakllanadi.

Konsept bir-biriga bog'liq, bir butun qoidaga ega g'oyalar yig'indisi. Konsept tushunchaning obrazda, mazmun va belgida aks etuvchi tarkibiy shakllarida mujassamlashgan mohiyatidir. Konsept matnda bir butun ko'rinishda namoyon bo'lib, matnda aks etgan mazmunni ochib berishga xizmat qiladi. Konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiyl xarakterga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimiyl xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi.

Konsept ko'rinas tafakkur kategoriyasi va bu uning izohlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Konsept atamasi "tushuncha" ma'nosini ifodalayotgan va undan "tushuncha" so'zining sinonimi sifatida foydalani kelinayotgan bo'lsa-da, oddiy tushuncha va konsept orasida farqli hamda o'xshash tomonlari bor. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, konsept ularning yuzaki (o'ta muhim bo'lмаган) tomonlarini ham qamrab oladi. Tushuncha so'z orqali ifodalanadi. Lekin tushuncha va so'z aynan bir narsa emas. Tushuncha biror bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va bu predmetning umumiyl va farqlovchi belgilari majmui asosida shakllanadi.

Konsept bir-biriga bog'liq, bir butun qoidaga ega g'oyalar yig'indisi. Konsept tushunchaning obrazda, mazmun va belgida aks etuvchi tarkibiy shakllarida mujassamlashgan mohiyatidir. Konsept matnda bir butun ko'rinishda namoyon bo'lib, matnda aks etgan mazmunni ochib berishga xizmat qiladi. Konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiyl xarakterga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimiyl xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, konsept termini so'z ma'nosining mohiyatidan kengroq bo'lib, konseptlar har bir millat tarixining rivojlanishi mobaynida ham o'z strukturasi hamda shu strukturani tashkil qiluvchi belgilari yo'qotmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, ya'ni "ayol" tushunchasi asrlar oldin boshqacha so'zlar orqali yuritilgan bo'lishi mumkin, lekin konsept sifatida asrlar osha davom etib kelmoqda.

Demak, so‘zning leksik ma’nosи va konsept tafakkur hamda kognitiv xususiyat bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, ongda borliqning aks etishi natijasi hisoblanadi. Shunday ekan, konsept kognitiv ong mahsuli bo‘lsa, so‘zning leksik ma’nosи lisoniy ong mahsulidir.

Umuman, konsept bilan so‘zning leksik ma’nosи o‘rtasidagi farq shundan iboratki, konsept konseptosfera birligi hisoblansa ham, so‘zning leksik ma’nosи tilning semantik maydoni birligidir.

Konseptning mohiyati kengroq tushuncha bo‘lib, u o‘zida faqatgina ma’no komponentlarigina emas, balki inson o‘z hayotiy tajribasi davomida orttirgan bilimlari hamda ongidagi axborot yig‘indisi, u yoki bu predmet yoki hodisa haqidagi ensiklopedik bilimlari majmuidan iboratdir deyish mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **O‘zbek tilida**

1. Agzamova D.B. “Xotira” konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari, T., 2012

### **Rus tilidagi adabiyotlar:**

- 3.Аскольдов С.А. Концепт и слово. // Русская словесность. Антология. Москва: Academia, 1997.
8. Кубрякова Е.С.Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Московский гос. ун-т, 1996.
11. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М.: Тетра Системс, 2004
- 12.Никишина И.Ю. Язык сознание коммуникация. // “Понятие концепт в когнитивной лингвистике”. – М., 2002. – № 21.
- 13.Рябкова Е.С. Альманах современной науки и образования // “Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры”. – М., 2012. – №4 (59).
- 14.Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд. 2-е. – М.: Академический проект, 2001.

### **Internet saytlar:**

1. [www.tdk.gov.tr](http://www.tdk.gov.tr)
- 2.<http://www.msxlabs.org/forum/ozbekistan/175725-ozbekistan-atasozleri.html>
3. [http://www.motifakademi.com/Makaleler/717162660\\_85-146.pdf](http://www.motifakademi.com/Makaleler/717162660_85-146.pdf)
4. <http://www.millifolklor.com/tr/sayfalar/98/09-.pdf>